XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-dekabr VII-2-025-1-0-K/24 Andijon viloyati

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining ayrim qarorlariga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida

Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Andijon viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarori, Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Soliq boshqarmasining 2024-yil 10-oktabrdagi bildirgi xatini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27-, 147-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda Soliq boshqarmasining 2024-yil 10-oktabrdagi bildirgi xati asos uchun;

2024-yil yanvar-sentabr oylarida Buloqboshi tuman mahalliy budjetiga "SHANGFENG-BRIDGE OF FRIENDSHIP" MChJ Qoʻshma korxonasi tomonidan 16 milliard 156,7 million soʻm hamda "ANDIJAN WCC CEMENT" MCHJ XK tomonidan 1 milliard 38,1 million soʻm noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq toʻlangan boʻlib, 2024-yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq turi boʻyicha 2024-yilda yangi ishga tushadigan quvvatlar inobatga olinmaganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda soliq boshqarmasining 2024-yil 1-iyuldan boshlab noruda qurilish materiallari boʻyicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq boʻyicha Buloqboshi tuman mahalliy budjetiga tushadigan tushumlarni viloyat budjetiga oʻtkazish boʻyicha taklifi ma’qullansin.

2024-yil 1-iyuldan boshlab Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi “2024-yil uchun Andijon viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash

to‘g‘risida”gi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qarori 4-ilovasining “Noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq” ustuning 6-“Buloqboshi tumani” qatoridagi “100” so‘zlari “0” deb o‘qilsin.

3. Viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘raqulov) Buloqboshi tumanidan noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarni 2024-yil 1-iyuldan boshlab viloyat budjetiga taqsimlanishini ta’minlasin.

Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (D.Isomiddinov) belgilangan tartibda 2024-yil 1-iyuldan boshlab Buloqboshi tumani mahalliy budjetiga kelib tushgan noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlarini hamda 2024-yil iyul-dekabr oylari rejalarini viloyat budjetiga o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Viloyat hokimining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi M.Ibroximov mazkur qaror matbuotda e’lon qilinsin va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari doimiy komissiyasi raisi (X.Omanov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi AXUNOV UKTAMJON
XXX